

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA`LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN VILOYATI
XALQ TA`LIMI BOSHQARMASI

Yangiqo`rg`on tumani XTMTTTEBga qarashli

30-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabining

boshlang`ich sinf o`qituvchisi

**Otajanova
Gulmiraning**

dars ishlanmasi



Namangan 2015

Ushbu dars ishlanma Yangiyo'rg'on tumanidagi 30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Otajanova Gulmiraning ko'p yillik ish faoliyati va tajribasi asosida yozildi.

Muallif: G.Otajanova

- 30-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabining boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Muharrir: N.Raximov

- Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi
mutaxassisi

Taqrizchilar:

M.Payziboyeva

- Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi
metodisti

D.Saidvaliyev

- 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Z.Nabiyeva

- 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ushbu dars ishlanma Viloyat metodika markazi huzuridagi boshlang'ich sinf yo'nalishi bo'yicha o'quv metodika kengashining yig'ilishida ko'rib chiqilib, 2014 yil _____ dagi _____ sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya etildi.

1 soatlik o'qish darsiga qo'yilgan

DTS talabi

1. O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish.
2. Bilim manbai bo'lgan kitobga qiziqish uyg'otish.
3. O'quvchilar nutqini boyitish.
4. Mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatish.
5. O'quvchlarni axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalash.
6. Sinfdan tashqari o'qishda turli adabiyotlardan foydalanish.

I. Darsning mavzusi: Yaxshilik.

II. Darsning maqsadi:

1. Ta'limiy maqsad:

O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, mantiqiy fikrlashga, aniq, ravon so'zlashga va ifodali o'qishga o'rgatish.

2. Tarbiyaviy maqsad:

a) O'quvchilarni Vatanga, el-yurtga mehr- muhabbat ruhida tarbiyalash;

b) Mehr oqibatli sahovatli insonlar bo'lib kamol topishiga hissa qo'shish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad :

O'quvchilarda o'qish malakalarini, dunyoqarashini, xulqi, odobi mukammal insoniy fazilatlarni rivojlantirish;

III. Darsning turi: Ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan noan'anaviy.

IV. Darsning jihozi:

Ko'rgazmali qurollar, test topshiriqlari, quvnoq maydoncha, kompyuter, krasvordlar, mavzuga oid rangli slaydlar, magnitafon.

Darsning tashkiliy qismi:

Darsning tashkiliy qismi: O'zbekiston Respublikasi Davlat
madhiyasi eshittiriladi.

O'qituvchi:

Qalam tutgan nozikkina
Qo'lingizdan o'rgilay ,
Mehr bilan boqib turgan,
Ko'zingizdan o'rgilay
Meni moydek erituvchi
So'zingizdan o'rgilay.
Bolajonlar omonmisiz
Bugun darsga tayyormisiz .

O'quvchilar: Biz hammamiz omonmiz,
Hozir darsga tayyormiz.

Shiorimiz: Beshikdan to qabrgacha ilm o'rgan!

O'qituvchi: Bugun oddiy dars emas ,
Balki sinov darsidir,
O'tib olsak sinovdan
Bu hammadan yaxshidir.
Qani ayting bolalar
Kim navbatchi bo'ladi.
Ushbu kunning hisobin
Menga aytib beradi.

Navbatchilar qo'l ko'taradilar.

O'qituvchi: Marhamat

1-o'quvchi: Bugun hafta kunining boshlanishi bo'libdi,
Olloh ushbu kuniga katta nazar solibdi.
Yaxshilik farishtasi yer yuzida qolibdi,
Barcha yaxshi yumushlar ezgu, niyat orzular

Ushbu kunning o'zida ijobat ham bo'libdi.

2- o'quvchi: Bizlar yaxshi bolamiz,
Ochilgan gul-lolamiz
Ota-ona izmidan
Ustozlarning so'zidan
Bizlar aslo chiqmaymiz
Sinfdagi barchamiz
Darsga shay gul-g'unchamiz.

O'qituvchi:
Turli mavzularda savol-javob o'tkaziladi,
Yashirilgan boshqotirma jadvali dars taxtaga osiladi.
Jadvalning yuqori qismida sonlar yozilgan.
Sonlarni o'sib borish tartibida joylashtirilsa, yashiringan
so'z kelib chiqadi .

43	29	15	22	6	65	4	52	19	37
O	Y	L	I	I	A	M	Y	L	G'

“Milliy g'oya” so'zi kelib chiqadi.

O'qituvchi:

Milliy g'oya nima?

O'quvchi:

Milliy g'oya, ustozim,
Hayotim mazmunidir
Maqsad sari yetaklar
Fikrimning mazmunidir.

O'qituvchi: Balli, o'quvchilar Vazirlar Mahkamasining 2006-yil
2-avgustda qabul qilingan 451-sonli qarori ham huddi mana

shu “Milliy g’oya targ’iboti; -ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to’g’risidagi” qaroridir.

G’oya – ikki xil bo’ladi: 1- Bunyodkorlik g’oyasi

2- Buzg’unchilik g’oyasi

Savol - javob tugagach uy vazifasini so’rab baholanadi.

O’quvchilar “Biz istiqlol farzandimiz” she’rini yoddan aytishadi. Ular istiqlolimiz tufayli yurtimizda amalga oshirilayotgan ezgu ishlar to’g’risida so’zlaydilar.

O’tgan mavzu: testlar yordamida mustahkamlanadi.

1. Eng aziz va issiq maskan qaysi?
 - A. Vatan, bozor
 - B. Qalb, vatan
 - C. Uy, bozor
2. Istiqlol nima?
 - A. To’kin sochillik, farovonlik
 - B. Mustaqillik, hamkorlik
 - C. O’zlikni anglash, Mustaqillik
3. Tortib, olib bo’lmas boylik nima?
 - A. Oltin, kumush
 - B. Kiyim-bosh
 - C. Ilm
4. Jasorat nima?
 - A. Samimiy mehribon bo’lish
 - B. Mardlik, botirlik, sheryuraklik.
5. Bir nafari ham ko’plik qiluvchi kishi

- A. Do'st
- B. O'rtoq
- C. Dushman

Dam olish daqiqasi o'tkaziladi.

So'ngra o'quvchilar 3 guruhga bo'linadilar.

Xat taxtadagi krossvord yechilib kalit so'zini aniqlaydilar.

“Yaxshilik” so'zi kelib chiqadi. Shundan so'ng klaster usuli bilan yangi mavzu bayon etiladi. O'qituvchi bolalar yordamida yaxshilikning turli ko'rinishini doskaga yozadi va ularga izoh beradilar



O'qituvchi: Bolalar, ko'rdingizmi bitta yaxshilik so'zining zamirida qancha ma'no yotibdi. Bizning davlatimizda ham yaxshilik, mehr-oqibat, saxovat va muruvvatpeshalikka, insonlarni og'ir damlarda suyash, qo'llab quvatlashga katta e'tibor beriladi. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan buyon har bir yilimiz o'ziga xos ramziy nom bilan atalishi an'anaga aylangan. Yillarimizning "Qariyalarni qadrlash

yili”, “Onalar va bolalar yili”, “Mehr muruvvat yili”, “Sihat salomatlik yili”, “Homilar va shifokorlar yili”, “Yoshlar yili”, “Obod turmush yili” kabi nomlarni olish bitta oliy maqsad – u ham bo’lsa inson manfaatlari yo’lida qilinayotgan say harakatlar ekani oydek ravshandir.

Aytingchi bolalar, 2014-yilimiz qanday nom bilan ataldi?
Bolalar: “Soglom bola yili”

O’qituvchi: Sog’lom bola deganda nimani tushunasiz?

O’quvchilar:

Sog’lom bola- sog’lom kelajak deganidir.

O’qituvchi: Sening baxt-u iqbolingga,
 Havas qilsin keng jahon,
 Bilimdon, dono, zukko,
 Sog’lom o’sgin bolajon.

Aziz bolajonlar, siz baxtiyor, baxti bor avlodsiz. Chunki tuprog’iga tayoq suqsang, serhosil nihol unadigan jannatmakon yurtda , mustaqil diyorda tug’ilib, voyaga yetyapsiz. Yurtboshimiz sizning jismoniy va ma’naviy jihatdan sog’lom bo’lib ulg’ayishingiz uchun keng ko’lamli umummilliy dasturlarni hayotga tadbiq qilmoqdalar.

O’quvchilar tomonidan “Sehrli yaproq ” ertagi sahnalashtiriladi.



Ertakdagi qizchaning harakatlari o'quvchilarga katta saboq bo'ladi. Chunki qizning sehrli yaprog'ining so'ngi tilagi kasal dugonasining tuzalib, sog'lom va quvnoq qizchaga aylanishi haqida edi.



O'qituvchi: Yashanglar, azal-azaldan xalqimiz orasida sahovat-u hikmatga alohida e'tibor berganlar. Bu insoniy fazilatlarning, savobning boshidir.

- Bolalar, qizchamiz haqiqiy bag'ri keng o'zbek farzandi ekaniligini namoyon qildi. Kasal dugonasi tuzalib,

sog'lom xushchaqchaq qizga aylanishidan benihoya xursandligini ko'rsatdi Bizning ota bobolarimiz ham azaldan insonlarga nisbatan muruvvatli bo'lganlar, bu borada ajdodlarimiz odob durdonalarini yozib qoldirganlar.

Shunday hikmatlarning ayrimlari bilan hozir tanishasiz. Sizlarga maqollar yozilgan manabu qog'ozlarni beraman. Diqqatingizni jamlab, ko'chaga qarang. Qish fasli. Yo'llar yaxmalak bo'lgani uchun behosdan sirpanib ketib, ularni yirtib qo'ydim. Siz esa ushbu yirtilgan bo'laklarni joy-joyiga qo'yib, unda yozilgan maqolni o'qib izoh berasiz.

O'quvchilar 3 guruhga bo'linishadi va maqollarni o'qiydilar.

1. Yaxshi so'z jon ozig'i-yomon so'z bosh og'rig'i.
2. Yaxshi niyat- yarim davlat.
3. Yaxshidan bog' qoladi - yomondan dog'.

Xar bir guruh o'zlariga berilgan maqollarning ma'nosini tushuntirib beradilar. Shundan so'ng kompyuter monitorida F Musajonovning "Yaxshilik" hikoyasi asosida tayyorlangan foto va video lavhalar namoyish etiladi.

O'qituvchi: Mana, hikoyani ham tomosha qildik. Endi darslik bilan ishlaymiz. O'quvchilar zanjir usulida hikoyani o'qiydilar va shu asosida savol javob o'tkazadilar.

- Hikoya nima haqida ekan?
- Yaxshilik haqida ekan.
- Yaxshilik deganda siz nimani tushunasiz?

O'quvchi: Yaxshilik birovlariga yordam va ko'maklashishdir.

-Erkin kimga yordam berdi?

-Boboga .

-Qilgan ishi haqida kimga maqtandi?

-O'rtog'i Nabiga.

- "Nafasi ichiga tushib ketdi" degan iboraga izoh beringchi?

- Bu ibora "Qo'rqib ketdi" ma'nosini bildiradi.

- Pirmat bobo nima deb shivirladi?

- "Yaxshilik qil lekin maqtanib yurma" deya shivirladi.

- Yuvib yuborma? degani nimani anglatadi?

- Qilgan ishingni gapirib maqtansang, yaxshilik qilgan bo'lmaysan.

- "Labini tishladi"- deganichi?

- Uyalgan, mulzam bo'lgan holatni .

- Sizning orangizda ham shunday bolalar bormi?

- Yo'q.

Chorrahadagi sahna ko'rinishi ko'rsatiladi.

O'qituvchi: Endi bolajonlar ekrandagi so'zlarni o'qib biz ular bilan qayerda uchrashganimizni aytasiz.

- G'amxo'rlikni qayerda ko'rdingiz?

O'quvchi: yurtimizda olib borilayotgan ezgu ishlarda .

-Saxovatni-chi?

O'quvchi: Yaxshilik farishtalari ishtirok etgan ertakda.

- Yordamga qayerda duch keldingiz?

O'quvchi: Yangi mavzuni o'tish jarayonida bizlar Pirmat boboga yordam ko'rsatdik.

- Savobgachi?

O'quvchi: Savob bilan chorrahada uchrashdik. Biz kampirning to'kilgan olmalarini terib berdik.

O'qituvchi: Barakalla, rahmat bolajonlar.

- Bularning hammasi kimlarga xos fazilat?

O'quvchilar: Bag'ri keng insonlarga.

O'qituvchi: Ko'rdingizmi bolalar, dars davomida biz yaxshilik bilan ko'p bora uchrashdik. Bundan keyin ham hayotingiz davomida u bilan muntazam uchrashib borasiz.

Ana endi darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholab olamiz. Buning uchun men yulduzchalar tayyorlab kelganman.

Uyga vazifa: hikoyani o'qib so'zlab berish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 3-sinf o'qish darsligi. Toshkent -2012 yil .
Mualliflar:M.Umarova,X.Hamraqulova,R.Tojiboyeva
2. Maqollar kitobi.
- 3.Islom Karimov, "Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga e'tibor"kitobi.
- 4.Yangi pedagogik texnologiyalar,(Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma)
- 5.Ta'limga texnologik yondashuv (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma)